

25-dars. LMS ASOSIDA MASOFAVIY TA'LIM OLİSH. GOOGLE CLASSROOM PLATFORMASI


Google Classroom platformasi haqida tushuncha

Axborot texnologiyalari sohasida yetakchi kompaniya nomlaridan biri Google ta'limga oid vosalalarni taklif etish imkoniyatini qo'ldan boy bermagan holda, Google for Education tashabbusi asosida Google Classroomni ishga tushirdi. Ushbu bulutli LMS hech qanday sozlovlarini talab etmaydi va Googleda akkauntga ega foydalanuvchi platformadan bemalol foydalanishi mumkin. Google Classroom platformasida o'quvchilar o'qituvchilar tomonidan kiritilgan o'quv materiallarini o'qishi, topshiriqlarni bajarishi, savollarga javob berishi, nazorat testlarini topshirishlari mumkin. Mazkur platformadan xohlagan qurilma va brauzer yordamida foydalanish mumkin. Eng muhimmi, Google Classroom – tekin!

Quyida **Google Classroom** platformasining ishi bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

Google Classroom platformasida o'quv kursiga a'zo bo'lish

1. **Google** akkaunti orqali tizimga kiriladi (1).
2. **Google Classroom** platformasiga o'tish uchun **Google** xizmatlaridan **Classroom** tanlanadi (2).
3. Kursga bog'lanish uchun (+) belgisi orqali **Join Class** tanlanadi va muloqotlar oynasida kursning kodi (kursga kirish uchun o'qituvchi tomonidan beriladigan kod, masalan, **2ubiu5p**) kiritiladi (3).
4. Tarkibidagi o'quv materiallari bilan tanishish va topshiriqlarni bajarish uchun kurs tanlanadi (4).



25-DARS. LMS ASOSIDA MASOFAVIY TA'LIM OLİSH. GOOGLE CLASROOM PLATFORMASI

73

Google Classroom platformasida o'quv kursi bilan tanishish

1. **Stream** bo'limida ijtimoiy tarmoqlar singari xabarlar, o'quv kursiga kiritilgan materiallar ketma-ketligi bilan tanishish mumkin (1).
2. **People** bo'limida kurs o'qituvchilari va kursda ta'lif olayotganlar haqida ma'lumot olish mumkin (3).
3. **Classwork** bo'limi orqali kurs materiallari bilan tanishish mumkin (2).
4. **All Topics** – kurs bo'yicha kiritilgan mavzularning ro'yxati. Qandaydir mavzu tanlanganda, unga mos o'quv materialining ro'yxati ochiladi (4).
5. Mavzu bo'yicha kiritilgan nazariy materiallar (5), amaliy topshiriqlar (6), savollar (7) va nazorat testlari bilan tanishish, ular tarkibidagi fayllarni ko'rish mumkin.
6. Amaliy topshiriq, savol va nazorat testlari faollashgan rang shaklida bo'ladi. O'quvchilar ularni tanlab, **You work** bo'limi orqali o'z javoblarini kiritishlari mumkin (8).
7. **Google Calendar** yordamida topshiriqlar va turli e'lonlar haqida ma'lumot olish mumkin (9).

The screenshot shows the Google Classroom interface. At the top, there are three main navigation tabs: Stream (1), Classwork (2), and People (3). Below these, there are links for 'View your work' (9) and 'Google Calendar'. The Stream section displays a list of posts:

- Post by 'Informatika CMS' titled '1-мавзу. SMM(Social media marketing - ижти...)' (4) posted on May 29.
- Post by 'Назарий' titled 'Амалий топшириқ' (5) posted on May 29, due May 31, 11:59 PM.
- Post by 'Саволлар' (7) titled 'Amaliy topshiriq' (6) posted on May 29, due May 15, 11:59 PM.

The Classwork section shows an assignment titled 'Амалий топшириқ' (8) due May 31, 11:59 PM. It includes a Google Doc and a screenshot file. The assignment status is 'Missing'.